



O‘ZBEKISTONDA YOSHLAR HUQUQLARI KAFOLATLANISHI: HOLAT VA ISTIQBOLLAR

Yuldasheva Nodira Ulug’bekovna

O‘zbekiston Milliy universiteti Tarix fakulteti Davlat va fuqarolik jamiyati institutlari boshqaruvi mutaxassisligining 1-kurs magistri

Mamlkatimiz *demokratik huquqiy davlat qurish va adolatli jamiyatni shakllantirish yo‘lidan dadil borib, dunyo hamjamiyatida o‘zining mustahkam o‘rnini egallamoqda.*

Ta’kidlash joizki mamlakatda amalga oshirilayotgan siyosiy va huquqiy islohotlar zamon talablari va ehtiyojlariga javob beruvchi yangi tipdagi huquq tizimini shakllantirishga yo‘naltirilgan. Bunda eng avvalo yoshlardan faollik, shijoat talab etilmoqda. Chunki ijtimoiy faollik insonni shaxs sifatidagi darajasining asosiy uning aynan sifat ko‘rsatkichidir.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq fuqarolar jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o‘z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar. Bunday ishtirok etish o‘zini o‘zi boshqarish, referendumlar o‘tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Fuqarolarning davlat organlarini demokratik tarzda tashkil yetishdagi ishtiroki asosan saylovlarda namoyon bo‘ladi. Erkin va bevosita saylovlar orqali fuqarolar shu bilan bir qatorda yoshlar o‘zi munosib bilgan shaxslarni hokimiyat organlariga saylaydi, hamda saylanadilar. Ularga nisbatan o‘z munosabatini bildiradi hamda davlat boshqaruvini amalga oshirishda ishtirok etadi.

Barchamizga ma’lumki O‘zbekiston axolisining qariib 65 % ni yoshlar tashkil qilmoqda. Shu bilan bir qatorda mahalliy vakillik organlari faoliyatida yoshlarning ishtiroki ulardagi daxldorlik hislari shakllanganligi, saylov jarayonlarida o‘zlarining tashabbuskorliklari bilan ishtirok etib kelayotganliklarining guvohi bo‘lmoqdamiz.



O‘zbekistonda erkin demokratik saylovlarda yoshlarning ishtiroki salmoqliy ahamiyat kasb etadi. Saylovlarda asosan saylov kunigacha 18 yoshga to‘lgan fuqarolar qatnashishligini inobatga oladigan bo‘lsak, mamlakatimizda o‘tkaziladigan saylovlarda yoshlarning o‘rni beqiyos ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Huquqiy demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini qurishda, yangi O‘zbekistonnda yangicha fikrlash va dunyo qarashni fuqarolarda, ayniqsa ularning yoshlar orasida shakllantirishda saylovlarning ahamiyati beqiyos ekan, bu borada yoshlarga saylov tizmini tushintirishni davrning o‘zi taqozo etmoqda.

Har bir millatning, mamlakatning ertasi, kelajak taqdiri yosh avlodning qo‘lida ekanligi sir emas. Shu sababli, yoshlarning siyosiy ijtimoiy faolligi davlat ahamiyatiga molik masalalardandir.

Oliy majlis qonunchilik palatasiga o‘tkazilgan saylov jarayonlarining tarixiga nazar solib, natijalari bilan tanishib chiqadigan bo‘lsak, 1999-yil 10-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis deputatligiga saylov o‘tkazilgan.

Respublika bo‘yicha 12 million 692 ming 202 nafar kishi saylovchi sifatida ro‘yxatga kiritilgan. Shundan 95,03 foizi ovoz berishda ishtirok etgan. 250 ta okrugning barchasida saylovchilar ovoz berishda ishtirok etganligi takidlanib, ularda o‘tkazilgan saylovlar haqiqiy deb topildi. Oliy Majlisi deputatlari saylanganlarning 11 nafari xotin-qizlarni, 1 nafari (2.5%) esa 30 yoshgacha bolgan yoshni tashkil qilgan.

2004-yil 26-dekabrda saylov va 2005-yil 9-yanvardagi takroriy ovoz berish natijalariga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasining barcha – 120 deputati saylandi va ro‘yxatga olindi.

Saylovlarda 489 deputatlikka nomzod, shu jumladan, siyosiy partiyalardan – 435 kishi va saylovchilarning tashabbuskor guruhlaridan – 54 kishi ishtirok etdi. 2004-yil 26-dekabrda asosiy saylovda 12 mln. 197 ming 159 nafar (85,1 foiz) saylovchi, 2005-yil 9-yanvar kuni o‘tkazilgan takroriy saylovlarda 5 mln. 400 mingdan ortiq kishi yoki takroriy ovoz berishda ishtirok etish huquqiga ega bo‘lgan saylovchilarning qariyb 80 foizi qatnashdi.

Saylov natijasida O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi saylovchilarining eng ko‘p ovozini oldi, bu partiyadan deputatlarning 34,2 foizi saylandi; O‘zbekiston Xalq



demokratik partiyasidan deputatlarning 23,3 foizi saylandi. Shuningdek Fidokorlar partiyasining 18 a'zosi, "Milliy tiklanish" partiyasining 11 a'zosi, "Adolat" partiyasining 10 a'zosi Qonunchilik palatasiga saylandi. Saylangan deputatlar orasdan 4 nafari (6%) ni 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etadi

2009-yil 29-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatligiga saylovlar bo'lib o'tdi. Markaziy saylov komissiyasi tekshirish yakunlariga ko'ra saylovchilar ro'yxatiga kiritilgan 17 million 215 ming 700 fuqarodan 15 million 108 ming 950 nafar saylovchi ishtirok etdi va bu saylovchilar umumiy sonining 87,8 foizni tashkil etdi.

Ovoz berishda barcha 135 ta saylov okrugida ro'yxatga kiritilgan saylovchilarning 33 foizidan ortig'i ishtirok etdi va saylov qonunchiligiga muvofiq ularda saylov o'tgan, deb hisoblanadi. Ovoz berish natijalariga ko'ra, 96 ta saylov okrugida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari saylandi. Ularning 33 nafari - Tadbirkorlar va ishbiarmonlar harakati - O'zbekiston Liberal demokratik partiyasidan, 25 nafari - O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasidan, 22 nafari - O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidan va 16 nafari - O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasidan. Saylangan 96 nafar deputatning 19 nafari èki 19,8 foizi xotin-qizlardir.

2009-yil 27-dekabrda bo'lib o'tgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga deputatlar saylovi yakunlariga ko'ra 150 nafar, mahalliy Kengashlarga 6124 nafar deputat saylandi. Shu jumladan, Tadbirkorlar va ishbiarmonlar harakati - O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan 53 nafar, O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidan 32 nafar, O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasidan 31 nafar, O'zbekiston "Adolat" sotsial demokratik partiyasidan 19 nafar deputat saylandi. 15 nafar deputat O'zbekiston Ekologik harakatining vakillaridir. Saylangan 150 deputatning 33 nafari èki 22 foizi xotin-qizlar, 2 nafari (3 %) yoshlarni tashkil qiladi.

2014-yil 21-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatligiga saylovlar bo'lib o'tdi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylov bo'yicha tuzilgan saylov okruglaridan 127 tasida bitta deputatlik mandati uchun 4 nafardan nomzod, 8 tasida 3 nafardan nomzod kurash olib bordi. Umuman, mamlakatimiz bo'yicha saylovchilar ro'yxatiga 20 million 789 ming 572 nafar saylovchining familiyasi kiritilib,



saylovda 18 million 490 ming 245 nafar yoki ro‘yxatga kiritilgan saylovchilarning 88,94 foizi qatnashdi. 2014-yil 21-dekabrda ovoz berish natijalariga ko‘ra, 113 ta saylov okrugida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari saylandi.

Shu bilan birga “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq 21-dekabr kuni O‘zbekiston ekologik harakatining Konferensiyasida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 15 nafar deputati saylandi. Siyosiy partiyalarning keskin raqobati natijasida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga saylov bo‘yicha 22 ta saylov okrugida nomzodlarning birortasi ham saylanish uchun zarur ovozlarni to‘play olmadi. Shu munosabat bilan 2015-yil 4-yanvar kuni ushbu okruglarda takroriy ovoz berish o‘tkazildi. Takroriy ovoz berishda saylovchilar ro‘yxatiga familiyalari kiritilgan 3 million 434 ming 345 nafar saylovchidan 2 million 642 ming 63 nafar saylovchi ishtirok etdi va bu ro‘yxatga kiritilgan saylovchilar umumiy sonining 76,9 foizini tashkil qiladi.


O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari saylovi natijalariga ko‘ra, parlament quyi palatasiga 150 nafar deputat, shu jumladan, Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan 52 nafar; O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasidan 36 nafar, O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasidan 27 nafar, O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasidan 20 nafar deputat saylandi. 15 nafar deputat O‘zbekiston ekologik harakatining vakillaridir. Saylangan deputatlarning 24 nafari yoki 16 foizi xotin-qizlar hamda 10 nafari (15 %) yoshlardir.

2019 yili mamlakatimizda “Yangi O‘zbekiston – yangi saylovlar” g‘oyasiga monand o‘tkazilgan saylovlarda yoshlarning faolligi har qachongidan yuqori bo‘ldi. Saylovchilarning yagona elektron ro‘yxatiga kiritilgan saylovchilarning 7 million 162 ming 316 nafari yoki 34,7 foizini 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil etdi. 2 mln.ga yaqin 18 yoshga to‘lgan fuqaro saylovlarda ilk bor ishtirok etdi hamda 30 yoshgacha bo‘lgan 14 nafar yigit-qiz siyosiy partiyalar tomonidan Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod sifatida ko‘rsatildi. Ulardan 10 nafari (15%) deputat etib saylandi.

Yoshlar saylov jarayonlarining tashkiliy ishlarida ham doim faol. 2019 yilgi saylovlar jarayonlarida Qonunchilik palatasiga saylov o‘tkazuvchi okrug saylov komissiyalari



a'zolarining **144** nafari hamda uchastka saylov komissiyalari a'zolarining **20 394** nafari **30** yoshgacha bo'lgan yigit-qizlar edi.



Shuningdek saylovchilarning uchdan biri yoshlarni tashkil etayotgan sharoitda yoshlarga bo'lgan yondashuvlarning zamonaviy usullarini joriy etish ahamiyatga ega:

-ijtimiy tarmoqlar hamda OAV orqali mahalliy vakillik organlari va ularning faoliyati yuzasidan ochiqlik va oshkoralikka tayanib, ko'proq yoritib borilishi ham joylarda yoshlarning ishtirokida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

- Yoshlarni yosh kategoriyalari bo'yicha saralab, segment guruhlar bo'yicha ishlashni tashkil etish joiz.

- nafaqat saylov yoshidagi balki hali saylov yoshiga yetmagan o'g'il-qizlarga ham mamlakatdagi barcha sohalarida, jumladan, milliy daylov tizimida amalga oshirilayotgan dadil islohotlarning yuksak samaralari haqida tushunchalar berish ularni saylov jarayonlari bilan hozirdan tanishtirib borish va siyosiy huquqlari anglashlariga ko'maklashish zarur

Binobarin, aholining elektoral madaniyatini oshirishda saylov oldi targ'ibotning zamonaviy usullari va shakllaridan unumli foydalanish, ayniqsa, ushbu jarayonda yoshlarning faolligini ta'minlash borasida ko'plab amaliy ishlar qilinmoqda. Yoshlar va saylov — bu ikki tushuncha o'zaro bog'liq va saylovni yoshlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.



Yangi O‘zbekistonning egalari bo‘lmish yoshlarda siyosiy, huquqiy bilimni oshirish orqali ularning saylovlarda faol ishtirokini ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Saylovlarda yoshlar faolligini oshirishda esa, Qonunchilik muammolari va parlament tadqiqotlari instituti, oliy ta‘lim dargoxlarida hamda mahalla fuqaro yig‘inlarida aholi va yoshlar orasida targ‘ibot-tushuntirish ishlarini tashkil etib bormoqda.

Bunday targ‘ibot ishlarining keng ko‘lamda olib borish saylovlarda yoshlarning siyosiy jarayonlarda faol bo‘lishligining garovidir.

Demak yuqoridagi qayd qilingan mulohazalar tadqiq etilayotgan mavzuning nechog‘lik dolzarb ekanligini ko‘rsatib turibti.

